



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Ilyasova Mohira Ruxiddin qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim)” mutaxassisligi bo‘yicha 1-kurs
Magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fan kompetensiyalarni shakllantirishda tizimli yondashuvning o‘rni, uning amaliy natijalari, ahamiyati va metodik asoslari tahlil qilingan. Tizimli yondashuv dars mobaynida izchil o‘qitish, dars jarayonini samarali, qiziqarli, tashkil etish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil, xulosa va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda quyidagi yondashuvning STEAM texnologiyalari va amaliy mashg‘ulotlar bilan aloqadorligi ham bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tabiiy fan, tizimli yondashuv, kompetensiya, metodika, boshlang‘ich ta’lim, STEAM.*

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning tabiiy fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni tizimli yondashuv orqali samarali amalga oshirilmoqda. Tabiiy fanlarni o‘qitish o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradigan eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ayni shu yoshda bola atrof muhitni kuzatishga qiziqadi, olgan bilimlaridan xulosa chiqaradi, sabab va natijalarini aniqlashga harakat qiladi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni boshlaydi. Shu davrdanoq o‘quvchilarga tabiat ne‘matlaridan unumli foydalanishni, tabiatimiz go‘zalligi uchun o‘z hissalarini qo‘shishlarini onglariga singdirib borishimiz kerak. Tizimli yondashuv aynan shu talablarni amalga oshirishga yordam beradi.

Tizimli yondashuv o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda, muammo – sabab – natija – xulosa bog‘lanishlarini tushunish, mustaqil tajribalar o‘tkazish, o‘z fikrini mustaqil bayon etish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta xizmat qiladi. Bugungi ta’lim jarayonimizda kompetensiyalarni shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lganligi sababli tizimli yondashuv asosida o‘qitish nafaqat zamonaviy, balki bizning oldimizda turgan zaruriy talablardan biridir.

Tizimli yondashuv o‘quvchining bilim olish jarayonini mantiqiy ketma ketlikda tashkil etishni maqsad qilgan. Bu jarayonning asosiy afzalliklarini quyidagilar tashkil etadi.

1. Mavzulararo bog‘lanishning kuchayishi.

Tabiiy fanlarda har bir mavzu bir biriga asoslangan bo‘ladi, masalan “o‘simliklarning xilma xilligi”, “daraxtlar, butalar, o‘tlar”, “o‘simliklar hayoti”, “o‘simliklarning urug‘lari” kabi mavzular bir biriga bog‘langan holda keladi. Tizimli yondashuv esa bu bog‘lanishlarni aniq qilib o‘quvchilarga ko‘rsatib beradi.

2. O‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish.



Tizimli yondashuvda o‘tilayotgan har bir mavzu avvalgisiga bog‘lanadi va taqqoslanadi. Bu esa o‘quvchini barcha mavzularni eslab qolishga, sabablarini tushunishga, intilishiga olib keladi.

3. Amaliy tajribalar bilan uyg‘unlik.

Tabiiy fanlar asosini kuzatish, tajriba va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv esa bu mashg‘ulotlarni mantiqan to‘g‘ri, ketma-ketlikda tashkil qilishga xizmat qiladi.

4. O‘quvchining o‘zlashtirish darajasini oshirish.

Tizimli yondashuv barcha o‘tilgan dars mavzularini o‘quvchilar tomonidan tez va samarali o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini, bilim darajalarini, qiziqishlarini, qobiliyatlarini hisobga olgan holda tabiiy fanlarni o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Tizimli yondashuvda darslarni tashkil etish, har bir mavzuni avvalgi mavzularga bog‘lab, izchil tarzda o‘rgatish imkonini beradi. Bunday metodika o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mustaqil tajribalar o‘tkazish, kuzatish, aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish kabi tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishda yordam beradi.

Tizimli yondashuv o‘quv jarayonining barcha bosqichlarini yagona maqsadga yo‘naltirishni ta‘minlaydi. O‘quvchilar biror bir hodisani o‘rganib, tajriba o‘tkazar ekan, fanga, tabiatga bo‘lgan qiziqishi ortadi, xulosa chiqaradi, atrof muhitdagi boshqa jarayonlar bilan bog‘laydi, natijada o‘quvchilarning bilimlari puxta, tushunchalari esa tizimli shaklga ega bo‘ladi. Bunday yondashuv nafaqat fan mazmunini chuqur o‘zlashtirishni, balki o‘quvchilarni, hozirgi davrimizning dolzarb muammolaridan biri, ekologik muammolarga ilmiy uslubda yechim topish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan tabiiy fan darslarida turli xil tajriba mashg‘ulotlaridan, qiziqarli, o‘quvchilarni tafakkurini rivojlantiradigan interfaol usullardan, hozirgi davrimizda keng ommalashayotgan STEAM texnologiyasidan foydalanish samarali natijalar beradi. Shu sababli o‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan qiziqish, ekologik tarbiya va ilmiy tafakkur shakllanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni:

- fanlarga bo‘lgan qiziqishga
- mustaqil fikrlashga
- mustaqil tajribalar o‘tkazishga
- kuzatishga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga
- amaliy va nazariy yechim topishga undaydi.

Tizimli yondashuv bilan birgalikda STEAM mashg‘ulotlarini qo‘llash yanada yaxshiroq samara beradi.

Tizimli yondashuv asosida o‘quvchilar tabiatda ro‘y berayotgan narsa va hodisalarni chuqurroq anglaydi va ularda ekologik mas‘uliyat shakllanadi. Masalan:

- Jonli va jonsiz tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlik.
- suvni isrof qilish qanday oqibatlarga olib kelishi.
- zavod va fabrikalarning kun sayin ko‘payib borayotganini atrof muhitga ta‘siri.
- tabiatga do‘stona munosabatda bo‘lish. Bularning barchasi o‘quvchilarda ekologik tarbiyani yarata oladi.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni tizimli yondashuv asosida o‘qitish metodikasi ta‘lim sifatini yanada oshirish va o‘quvchilarda muvaffaqiyatli kompetensiyalarni shakllantirishning muhim vositasidir. Tizimli yondashuv asosida o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda, mustaqil fikrlashini va ilmiy qarashlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuv dars mavzularini mantiqan bir biriga bog‘liq holda tashkil qiladi, o‘quvchilarni fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, turli tajribalarni mustaqil bajarishga o‘rgatadi, “chunki buyuk kashfiyotlar kichik tajribalardan boshlanadi”, ekologik madaniyatni rivojlantiradi. Shu sababli tabiiy fanlarda tizimli yondashuvdan foydalanish pedagogik amaliyotning asosiy talabi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Boshlang‘ich ta‘lim” o‘quv dasturi. -Toshkent, 2020.
2. G‘offorova T., Jo‘rayev R. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. Metodik qollanma. - Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Abdullayeva Q., Mavlonova R. Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, 2021.
4. Bybee R. The Case for STEAM Education. Ilmiy monografiya. -NSTA Press, 2013.
5. OESD. Scientific Literacy and Education Framework. Me‘yoriy-huquqiy metodik hujjat. -Paris, 2019.